Qodirova Zohida Sobirovna
University of business and science Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrasining katta o'qituvchisi (PhD)
E-mail: kodirova@gmail.com

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TIZIMLI TASHKIL ETISH MAZMUNI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10422369

Annotatsiya. Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlash mexanizmlari, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirishning mazmuni, bo'lajak tarbiyachilarni malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ifodalangan.

Kalit so'z. Kasbiy faoliyat, adaptiv, refleksiv va aksiologik, analitik, natijaviy komponent, mexanizm, texnologiya.

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim mazmunini yangilash hamda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarni amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitidan samarali foydalanib, bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyotni tashkil qilish texnologiyasi rivojlantirish, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda uzluksiz (I-IV kurslar) amaliyot jarayonini integratsiyalash texnologiyasini yaratishning ahamiyati va muhimligi uningtalaba kasbiga nisbatan ishonch e'tiqodni shakllantirish, yosh avlodni barkamol va yetuk etib voyaga yetkazish tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta'lim muassasalari talabalarining amaliyot jarayonini tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga samaradorli tayyorlashga erishish dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmatqiladi.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini yoritib berish;

bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish;

kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak tarbiyachilarni malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni tanlab olinib, Andijon davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Namangan davlat universitetlarining 280 nafar respondent-talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, nazariy-pedagogik asoslaridir.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalar yechimini topish uchun pedagogik kuzatuv, tanqidiy-qiyosiy tahlil, so'rovnoma, test, matematik-statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bosqichlari (adaptiv, refleksiv va aksiologik) uzluksiz malakaviy amaliyot tuzilmasini maqsadga yo'naltirilgan, mazmunli, tashkiliy-faoliyatga yo'naltirilgan, analitik-natijaviy komponentlari bilan qayta aloqaga kirishish darajasini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik mazmuni tarbiyalanuvchilarda ma'naviy kompetentsiyalarni (odatlanish, ehtiyojlarini bildirish, muloqotga kirishuvchanlik, o'z-o'zini eplay olish) shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat natijalarini empirik baholash asosida takomillashtirilgan;

kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari o'quv-tarbiyaviy, yozgi pedagogik amaliyot, o'quv-texnologik va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazishda modulli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi individual, muammoli, keys-topshiriqlari majmuini ishlab chiqish, talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning konstruktiv tarkibiy asoslarining jadalligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etishning modulli texnologiyasini takomillashtirishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

malakaviy pedagogik amaliyot vositasida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

talabalarning malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish va o'tkazishning elektron tizimi takomillashtirilgan;

talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli ishlab chiqilgan va ta'lim amaliyotiga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan metodlar va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingani, empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Respublikamizda va xorijda yaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarga, amaliyotchi-o'qituvchilarning tajribalariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo'lajak tarbiyachilarnikasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishga oid nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi; bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda shaxsiy va kasbiy komponentlar, va shuningdek, talabalarda kasbga bo'lgan munosabat normalarining takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak tarbiyachilarni malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy-pedagogik tavsifi, uning o'ziga

xos pedagogik xususiyatlari belgilanganligi, talabalarni kasbga tayyorlash bo‘yicha o‘qitiladigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining takomillashtirilgan malaka talablari, fan dasturlarini ishlab chiqishda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha kompetentsiyalarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslariga oid tadqiqotning ilmiy natijalari quyidagicha joriy etilgan:

bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bosqichlari, uzluksiz malakaviy amaliyot tuzilmasini maqsadga yo‘naltirilgan, mazmunli, tashkiliy-faoliyatga yo‘naltirilgan, analitik-natijaviy komponentlarini aniqlashtirishga doir takliflardan 5111800 – Maktabgacha ta’lim bakalavriat yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 29 yanvardagi 89-03-377-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning o‘quv va malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etishda uzviylikni ta’minlashga erishilgan;

bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik mazmuni, o‘quv-tarbiyaviy, yozgi pedagogik amaliyot, o‘quv-texnologik va malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazishda modulli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga doir takliflardan PZ-2017-0927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan(Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 29 yanvardagi 89-03-377-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini oshirishga erishilgan;

bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi, talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning konstruktiv tarkibiy asoslarining jadalligini ta’minlashga doir amaliy taklif va tavsiyalardan A-5-37 raqamli “Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dastlabki matematik bilimlarni shakllantirishga mo‘ljallangan mulьtimediali intellektual o‘yinlar” (2015-2017 yy.) amaliy loyihani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 29yanvardagi 89-03-377-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak tarbiyachilarda texnologik kompenetentlikni rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Xulosa

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Bugungi kunda ma’naviy yetuk va yuksak salohiyatli tarbiyachilarni tayyorlash davlat siyosati darajasidagi muammo ekanligi, bunda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayonni amalga oshirishda malakaviy pedagogik amaliyotga jiddiy e’tibor berish zarurligi ma’lum bo‘ldi.

Dastlabki nazariy va amaliy tahlil, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyotdan foydalanish masalasi o‘z yechimiga ega emasligini ko‘rsatdi. Pedagog olimlar tomonidan yaratilganasarlar, ilmiy tadqiqot ishlarida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiyfaoliyatga tayyorlashda pedagogik muloqot va pedagogik odobga xos bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashishini ta’minlovchi va kasbiy faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar yoritilgan bo‘lib,talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid manbalar yaratilmaganligi aniqlandi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini modernizatsiyalash, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlash maqsadida yaratilgan MTT “Kontseptsiyasi”, MTT Nizomi, Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish “Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi Oliy ta’limning malakaviy pedagogik amaliyot jarayoniga hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi malakaviy pedagogik ama-

liyotni o‘tkazishga to‘liq tatbiq etilmayotganlik holati aniqlandi. Bu muammoni hal qilishda, yuqoridagi me’yoriy hujjatlar talablarini amaliyotga tatbiq qilish metodikasini ishlab chiqish zarurligi belgilandi.

Tadqiqot natijalari malakaviy pedagogik amaliyot resurslar (didaktik-kreativ, kommunikativ, interaktiv) va imkoniyatlar (kasbiy faoliyat mazmunini anglash; muloqot va ijodiy hamkorlikning variativligi; kasbiy faoliyatga ishonchni qaror toptirish) yig‘indisi integratsiyasiga asoslangan katta potentsialga ega ekanligini ko‘rsatdi.

5. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ta’lim-tarbiyasi juda murakkab bo‘lganligi sababli talabalarni bu kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyotni tizimli tashkil etilishi aniqlandi.

6.Uzluksiz malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etishda talabalarni kasbiy faoliyatga yo‘naltiruvchi tarbiyaviy tadbirlarning tartibli tashkil etishgaehtiyoj sezildi.

7. Malakaviy pedagogikamaliyotikki bosqich asosida tashkil qilindi:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiya jarayonini samarali tashkil qilish; Maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruvi faoliyatini o‘rganish; bo‘lajak tarbiyachilar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, metodist va mudiraning ish rejasi va faoliyati haqida bilimga ega bo‘ldilar, bolalarning rivojlanish reyting varaqalarini o‘rganib, unda ko‘rsatilgan mezonlarni ko‘rsatkich darajasini tahlil qilish malakasiga ega bo‘ldilar.

8. Tadqiqot davrida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etishga oidmaxsus metodikani ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. Amaliy faoliyat natijalarining ko‘rsatishicha, tajriba-sinov ishlarini quyidagi metodikaga muvofiq amalga oshirish ilmiy izlanish samaradorligi ta’minlaydi: «Tarbiyachilik faoliyatiga tayyormisiz?» metodikasi, «Eng yaxshi amaliyotchi-tarbiyachi» xaritasi, «Tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy asoslari» nomli test so‘rovi.

9. Tajriba-sinov ishlari natijalari malakaviy pedagogik amaliyot vositasida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy modeli va texnologik xaritasini amaliyotga tatbiq etish natijasida ijobiy natijaga erishilganligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda uzluksiz malakaviy amaliyotni tashkil etishning modulli o‘quv dasturlari va didaktik ta’minotini ishlab chiqish lozim.

Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazishning elektron tizimini takomillashtirish, interaktiv muloqot va maslahatni amalga oshirishning dasturiy vositalarini ishlab chiqish lozim.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan innovatsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalari qoshida laboratoriya markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Talabalarning malakaviy pedagogik amaliyot bo‘yicha individual kundaligini quyidagi bo‘limlar asosida takomillashtirish zarur: “O‘zining kasbiy sifatlarini baholash”, “Diagnostik portfolio”, “Kreativlik platformasi”, “Mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish va tahlil etish”, “Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish praktikumi”, “Metodik to‘plam”, “Individual topshiriq”, “Refleksiya”, “Natijalar”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘quv rejasi. 5111800 – Maktabgacha ta’lim.2011-2012.

2. Asqarova O‘.M. Mashqlar va masalalar to‘plami. – T.: Istiqlol, 2005. 110-bet, 7-9-b.Toshpo‘latov SH. Malakaviy amaliyot ishchi dasturi (1-2-3-4 kurslar uchun) – T., 2009. – 28-bet.

3. Ibragimova G. Uzluksiz ta’lim jarayonining takomillashtirishning dolzarb masalalari. Pedagogik ta’lim – T., 2004. – №4 – 42-43-bet.

4.Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy ham kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fanl. ... nomz. diss.

avtoref. – T., 2010. – 17 b.
5. XaydarovM., Muslimov F.Pedagogik kadrlar tayyorlash istiqboli. Pedagogik ta'lim. – T., 2009 – 8-9 bet.
6. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika darslik. – T.:Tafakkur, 2019.

Кадырова Зохида Собировна
Старший преподаватель кафедры дошкольного образования и физического воспитания Университета бизнеса и науки (PhD)
E-mail: kodirova@gmail.com

СОДЕРЖАНИЕ СИСТЕМНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотатция: Механизмы поэтапной подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности, содержание уточнения педагогических возможностей обеспечения слаженности и непрерывности процесса подготовки к профессиональной деятельности, технология подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности в процессе обучения.

Ключевое слово. Профессиональная деятельность, адаптивный, рефлексивно-аксиологический, аналитический, результативный компонент, механизм, технология

Kadyrova Zohida Sobirovna
Senior teacher of the Department of Pre-Primary Education and Physical Education of the University of Business and Science (PhD)
E-mail: kodirova@gmail.com

CONTENT OF SYSTEMATIC ORGANIZATION OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL PRACTICE IN PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Annotation. Mechanisms of step-by-step preparation of future educators for professional activity, the content of clarifying the pedagogical possibilities of ensuring the coherence and continuity of the process of preparation for professional activity, the technology of preparing future educators for professional activity in the process of qualified pedagogical practice are expressed.

Key word. Professional activity, adaptive, reflexive and axiological, analytical, resulting component, mechanism, technology